Advances in Science and Education, 2025, 5–7

doi: 10.70728/edu.v01.i05.002
Volume 01, Issue 05
ISSN: 3060-5415
Paper

PAPER

QURILISH TERMINOSISTEMASIDA “GENIUS LOCI” KONSEPSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY QO’LLANILISHI

Ostonova Ramziya[1]

[1]O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti, Toshkent, O’zbekiston

* astonovaramziya@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada “genius loci”konsepsiyasi va qurilish terminlari o’rtasidagi bog’liqlik nazariy va amaliy tahlil qilingan. Tarjimashunoslikda bu konsepsiya qurilish madaniyati tasvirini berganda madaniy an’analarni saqlash tamoyiliga ega. Tarjima o‘z tarkibida madaniy an’analarni,joyning ruhiyatini (genius loci) qamrab olishi kerak.

Key words: genius loci konsepsiyasi, qurilish terminosistemasi, madaniy omil,ekstralingvistik omil, estetik omil.

KIRISH

Qurilish materiallari terminologiyasi zamonaviy sohaning ajralmas qismi bo‘lib, loyihalar va savdo jarayonlarining rivoji uchun standartlarga moslashish darajasi transmilliy sohada muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalarning globallashuvi va xalqaro integratsiya bozorlar termin tizimini bir xilda tushunish va qo‘llash kerakligini taklif qiladi. Rus, o‘zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan qurilish materiallari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari o‘rganish va ularni xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish xalqaro hamkorlik rivojlantirish uchun zarurdir. O‘zbek tilidagi qurilish terminologiyasida ba’zi mahalliy an’analar bilan bog‘liq qurilish terminlari xalqaro terminlarga bevosita mos kelmaydi. Ushbu terminlarni xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat ilmiy, balki ayni paytda dolzarbdir.

MUHOKAMA

Tarjima va qurilish-arxitektura o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi “genius loci” nazariyasi mavjud [1]. Meriam Webster,Collins,Oxford lug‘atlarida “genius loci”so‘zi “joyning ruhi,makonning homiysi”deb tarjima qilinibma’lum bir joyning maxsus o‘zgacha muhitini ifodalaydi. Wilkipedia onlayn ensiklopediyasida “genius loci”so‘zi Qadimgi Rimda joyning homiysi ma’nosida ishlatilingan [2]. Keyinchalik Yevropa uyg‘onish davri rassomlari Qadimgi Rim merosini qayta ochib,”genius loci”ni san’at va landshaft tushunchalariga ko‘chirishgan. XVIII asrda ingliz shoiri Alexander Pope Epistle IV “Richard Boyle” she’rida [3] **“Consult the genius of the place in all”** deb yozadi ya’ni hamma narsada joyning ruhiga quloq soling degan tasvirni bergan.

“Genius loci” konsepsiyani arxitektura va tarjimashunoslik bilan bog‘lagan faylasuf Christian Norberg-Schulz *“Genius loci: towards a phenomenology of Architecture”* asarida bu konsepsiyani chuqur tahlil qilgan. Tarjimashunoslikda bu konsepsiya qurilish madaniyati tasvirini berganda madaniy an’analarni saqlash tamoyiliga ega. *“Genius loci”* konsepsiyasi tarjimaning muhim va muammoli aspekti bilan bog‘liqdir [4]. Muammoli aspektlardan biri bu tarjima qilinadigan va tajimaga muhtoj bo‘lmagan (translatability and untranslatability) so‘z va terminlaridir. Til va madaniyat o‘rtasida tarjima jarayonida qiyinchiliklar har doim uchrashi tabiiy holatdir. Chunki tarjima o‘z tarkibida madaniy an’analarni,joyning ruhiyatini (genius loci) qamrab olishi kerak. So‘z, so‘z birikmasi va terminlarni ba’zan bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda *“genius loci”* ni to‘liq aks ettira olish va qamrab olishda imkonsizlik hissini beradi. Tarjimashunoslik nazariyalarida *“genius loci”* madaniyatlararo kontekstni tarjima qilish nuqtai nazaridan keyinchalik universal falsafiy prinsipga aylangan bo‘lib, *genius loci* bilan bog‘liq ma’lum bir so‘z, so‘z

Compiled on: September 16, 2025.
Copyright:©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

birikmasi va termin tarjimasida quyidagilar inobatga olinishi kerak:


1. Madaniy omil: tarjima jarayonida joy, bino, inshootning madaniy ruhiyatini qamrab olishi kerak. Misol uchun Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asarida qadimgi va ko'hna Buxoroning me'morchiligi, qurilish uslublari, qurilish tarixi haqida bayon qilingan. Bu tarixiy asardan olingan parchalarni tahlil qiladigan bo'lsak: **"Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyabotlari haqida to'xtab, shunday deydi: Abu-l Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo'lgan"** [5] bu parchada "kuhandiz va hisori" terminlarining ma'nosi fors tilidan kelib chiqgan bo'lib "qal'a, istehkom, mustahkam devor, himoya devori ma'nosini anglatadi. **Ingliz tilida** "kuhandiz va hisori" tarjimalari turlicha: bastion, fort, motte-and-bailey castle, fortress. Ammo "fortress" degan tarjimaning tanlanishi bu qal'a siyosiy va muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda maydoni jihatdan katta ekanligini ko'rsatishi mumkin. Meriam Webster lug'atida "bastion" so'zi ham qal'a degan ma'noni o'zida jamlagan bo'lishiga qaramay bu tarjima tanlansa, qal'aning to'rtburchak shaklda ekanligiga urg'u beriladi. Agar tarjimada "fort" so'zi tanlansa Meriam Webster lug'ati bo'yicha kichikroq mudofaa inshootini hamda funksional vazifasi askarlarni vaqtincha joylashtirish,strategic nuqtani nazorat qilish uchun qurilganligini ko'rsatadi.

2. Ekstralingvistik omil: tarjimon tarjima jarayonida nafaqat so'zlar, so'z birikmlari, terminlarni hisobga olishi kerak, shu bilan birga joyning tarixi,iqlimi, qurilish madaniyati va diniy qarashlarini inobatga olishi kerak. Shu holatdagina "genius loci" saqlanib qolinadi. Misol uchun, agar qadimiy binolar orasida zamonaviy bir bino qad ko'tarsa bu joyning "genius loci"si ya'ni joyning muhitini inobatga olinmaganligi uchun joyning ko'rkiga putur yetkazadi xuddi shu singari qurilish terminlarini tarjima jarayonidagi "genius loci"si ya'ni joyning qurilish madaniyati inobatga olinmasa, tarjimada noaniqlikni olib kelishi mumkin. Samarqanddagi Registon maydoni yaqinida yangi mehmonxona loyihalashtirganda, qadimiy sharqona qurilish madaniyati misol uchun gumbaz, ravoq, naqshlar bu joyning "genius loci"sini -ya'ni tarixiy va madaniy ruhiyatini saqlab qolishga hissa qo'shadi. Xuddi shu singari, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Toshkent shahrining tasvirlanishi, o'sha davr mahallalari, hovlilari, ijtimoiy hayoti o'ziga xos *"genius loci"* ni aks ettiradi. Bino loyihalashda joyning tabiiy, madaniy, tarixiy manzaralari inobatga olinganidek qurilish terminlari tarjimasida joyning ruhiyati va xarakteriga ishlatish funksiyasi zid chetlab o'tilmay aksincha uni to'ldirib, boyitishi lozim.

NATIJALAR

Norberg-schulz "genius loci" konsepsiyasini qurilish madaniyati va tarjimashunoslik bilan bog'lagan faylasuf o'z yashash makonini quyidagicha tasvirlaydi **"Yet, double-glazed windows, framed by a wooden structure, reflect the tall pine trees and invite the natural environment into the living space"** [6]. Tahlil qiladigan bo'lsak, bu matndagi qurilish terminlari:

double glazed windows- ikki qavatli deraza. Funksiyasi: issiq yoki sovuq o'tkazmaydigan ikki qatlamli deraza. Vizual tasvirda ifodalasak:



a wooden structure- yog'ochli inshoot, yog'ochli uy.

Berilgan tasvirni sun'iy intelekt yordamida 3D tasvirini ishlab chiqqanimizda quyidagi tasvir hosil bo'ldi:



Bu kontekstda inobatga olinishi kerak bo'lgan *"genius loci" ya'ni qurilish madaniyati shuki, Norvegiyaliklar qarag'ay daraxtini asosiy qurilish materiali sifatida ishlatishadi. Ushbu kontekstda qarag'ay daraxtining asosiy material sifatida ishlatish jarayonidan xabardorlik tarjima jarayonidagi aniqlik uchun xizmat qiladi.*

3. Estetik omil: qurilish madaniyati tarjima jarayoni bilan tutash kelganda tasvir va kayfiyatni saqlab qolishi –"genius loci"ni yetkazish deb hisoblashimiz mumkin. Ch.Norberg-Schulzning fikricha "qurilish madaniyati va tarjima jarayoni "genius loci"ni o'zida aks ettirishi kerak. Zamonaviy qurilish terminlari misolida ko'rib chiqsak:

✓ Green- yashil rang;

Qurilish sohasidagi “Green” bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z birikmalarini yashil deb tarjima qilsak, butun mohiyatni qamrab ololmaydi. “Green building”-yashil bino degan tarjima, bu binoning butun funksional xususiyatini ochib bera olmaydi. Agar “green” so‘zi qurilish terminlarida *“tabiatga zarar bermaydigan,zararsiz,ekologik hamda barqaror, energiya tejamkor”* degan tajima berilsa asl mohiyatni yaqqol namoyon etadi. Misol uchun:

✓ Green- 1. yashil rang;

2.tabiatga zarar bermaydigan, zararsiz, ekologik, barqaror, energiya tejamkor;

So‘z birikmalarida tahlil qilsak:

- Green building — tabiatga zararsiz bino; ekologik, energiya tejamkor bino;
- Green materials — zararsiz xomashyo;
- Green concrete — zararsiz beton;
- Green construction — tabiatga zarar bermaydigan qurilish;
- Green field — ekologik toza yer; qurilishsiz yer;

Qurilish terminlari tarjimasida “genius loci” ya’ni, joyning estetik, ekstrolingvistik, madaniy omillarini inobatga olish tarjima jarayonida aniqlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Bakr Muhammad ibn Jaf’ar an-Narshaxiy “Buxoro Tarixi” fors tilidan Rasulev. A tarjimasi(www.ziyouz.com.kutubxonasi).
2. A.U.Andersen “Translation in the architectural phenomenology of Christian Norberg-Schulz” Cambridge University Press 2018.
3. Manuel Orazi,Siri Nergaard “Architecture in Translation”,14th International Architecture of la Biennale di Venezia. Weekend Speacials-September 27-28,2014.
4. Allpoetry.comto Several Persons: Epistle IV, To Richard Boyle, by Alexander Pope - Famous poems, famous poets. - All Poetry.